

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН
АКАДЕМИЯСИ
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2022-5/4

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2022

Бош муҳаррир:

Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.

Бош муҳаррир ўринбосари:

Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.

Таҳрир хайати:

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i> <i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i> <i>Абдуллаев Рашидан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i> <i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i> <i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i> <i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i> <i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i> <i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i> <i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i> <i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i> <i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i> <i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i> <i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i> <i>Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i> <i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i> <i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i> <i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i> <i>Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i> <i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i> <i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i> <i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i> <i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i> <i>Сотилов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i> <i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i> <i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i> <i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i> <i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i> <i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i> <i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i> <i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i> <i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i> <i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i> <i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i> <i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i> <i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.</i>
--	--

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/4 (89), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 204 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

МУНДАРИЖА

БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Davronqulova F.A. Manzarali o'simliklarning kelib chiqishi va shakllanishi	5
Gulboyev D.T., Olimjonova S.G'. Achchiq bodom (<i>Amygdalus communis</i>) ni in vitro sharoitida to'qimajayralarini rivojlanish imkoniyatlari	8

ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ

Махмудов И.Э., Мирзаев А.А., Саримсақов М.М. Томчилатиб суғориш технологияси самарадорлигининг экспериментал тадқиқотлари	12
Норов Б.Н., Қўчқаров О.Э., Амантурдиев Б.Б. Дурагайлашга жалб қилинган нав ва тизмаларда айрим қимматли хўжалик белгилари ҳамда тола сифатини шаклланиши	16

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Abdullaeva N.Sh. Transport korxonalarida kadrlar siyosatining mazmuni va mohiyati	21
Kholkhodjaeva D.Sh. Concepts of logistics	23
Kudratov B.G. Korxonada personalni boshqarishning ijtimoiy samaradorligini oshirish muamolari	26
Nematova Sh.E., Salimjonova Z.S. Raqamli iqtisodiyot va ta'lim texnologiyalari	29
Raimova M., Djumanova A.B. Korxonada faoliyatining kritik nuqtasini tahlili	33
Курбанова Д.А., Қурбонова З.А. Глобал темирбетон ишлаб чиқариш саноатини тежамкорлик асосида ташкил этишининг назарий асослари	36
Қўчқоров Ғ.Ф., Сатторов У., Йўлдошев М. Инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усуллари	38
Махмудова Н.Б. Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги аҳамияти ва назарий асослари	41
Мухитдинова К.А. Саноат корхоналарининг инвестицион жозибadorлигини таҳлил қилишда услубий ёндашув: мажмуавий таҳлил	44
Паязов М.М. Хизматлар бозорининг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари	46
Табаев А.З. Қишлоқ хўжалигида агрокимё хизмати кўрсатишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш	50
Ходжаева Н.А. Сценарии развития использования целевых показателей отраслевых программ Республики Узбекистан, при экологически ориентированной экономике	55
Ходжибоева И.В. Корхонанинг ривожланишида инвестицион жараёнлар ва инвестицион салоҳиятнинг аҳамияти	58
Якубова М.А. Цифровизация энергетики- фактор устойчивого развития	61

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Сафарова З.С. Ўзбек кино санъатининг иккинчи жаҳон уруши йилларидаги фаолияти	64
Ахмедов С. Ўзбекистоннинг Осиё ва Африка давлатлар билан маданий алоқаларида Тошкент конференциясининг ўрни	66
Равшанов А.Х. Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта махсус, касб-хунарсиз тизимидаги ислохотлар тарихидан	69
Махматқулов Ж.И. Мустақиллик йилларида гиёҳванд моддаларнинг тарқалишини олдини олиш борасида амалга оширилган ишлар	72
Хаджимуратов А.А. Социализм давридаги тадбиркорлик ҳақида	75
Abduvohidov D. “Katalas” dan “Rayariq” qacha	78
Бободустов Б.М. Ўрта Зарафшон воҳасининг асосий сув манбалари: тарихий таҳлил	81

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Anarboev O.R. Publisistik uslub — hayot ko'z gusi sifatida	85
Atamurodova D.T. Frazelogizmlarning pragmatik xususiyati	88
Atavayeva Z.B. Adabiyotshunoslikda “demon” motivining qo'llanilish xususiyatlari	90
Azimjonova Sh. Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'siri munaqqid nigohida	93
Azimov A.X. Frazelogiya va idiomalar	96
Boqiyeva M. The modern grammatic category of the verb	98
Vuxarova M.X. Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning muammolari	101
Jumanova Sh.R. Cho'lponning “Kecha va kunduz” asarining ingliz tili tarjimasida qiyosiy-lingvistik tahlil	104
Keldiyorova G.S. Erkin Vohidov asarlari til xususiyatlari va badiiy matnning o'ziga hos xususiyatlari	107
Makhmatkulova Sh. The word “fidoiy” in the modern uzbek language: the enlargement of semantic structure	110
Naimova A.M. Tarixiy inversiyaning namoyon bo'lish vositalari	113
Narzullayeva F.O. Bosh so'zi somatizmlarining ingliz va o'zbek tillarida qo'llanilishi	115
Norbaboyeva M.T. Tohir Malik ijodida “Yetim bola” obrazi talqini	118
Nuritdinova R.S. Onomastik konversiya - apellyativ leksikaning antroponimlarga o'tish usuli	122
Rasulkulova K. Integrating speaking skills by listening	125

Rasulova M.A. Sociolinguistic aspect of the normativity of the modern English language	127
Ro'ziyeva J.E. Nemis tilida modallikni ifodalovchi leksik vositalar	129
Shirova M., Rakhimova Yu. The problem of bilinguality in Germany	131
To'yboeva Sh.R. O'zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini	134
Umarova M.U. Phraseology of the English language	137
Yusupova Z.K. Methodology for monitoring educational activities in distance learning of a foreign language	140
Zayniyeva H.Sh., Qadirova R.J. Badiiy tarjimalar pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari talqini	143
Камалов У.А. Лексические средства выражения оптативной модальности в русском и узбекском языках	145
Каримова Ж.Ш. Фразео - синонимический ряд и проблема доминанты	148
Очилов У.С. Абдулла Қодирийнинг “Обид Кетмон” кассаси - коллективлаштиришни ўзгача талқин қилган асар	151
Рахимова С.Ж. Ибораларда кўп маънолилик шакллари	154
Садуллаев Ф.Б. Равишнинг бир даража кўрсаткичи хусусида	157
Турдалиева Д.С. Паремиялар нутқий ҳаракатлар сифатида	159
Усмонова З.Х. Стивен Кингнинг “Ўлик минтақа”(“Dead zone”) асарида «the laughing tiger» образ талқини	161
Хусанова М.А. Поэтик асарда риторик сўроқ гапларнинг экспрессив имконияти	165
Чориева М.М. Чет тилни ўрганиш жараёнида маданиятлараро алоқаларнинг ўрни	167
ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
Kasimova M.B. Nofilologik oliy o'quv yurti rus tili darslari jarayonida talabalarning faollik darajasini oshirishni takomillashtirish	170
Nurutdinova M.S. Oliy o'quv muassasalari talabalariga o'zbek tili sohada qo'llanilishi fanining ahamiyati	172
Burxonova G.M. Milliy guruhlarda rus tilini o'qitishda talabalarning nutq qoliatlarini takomillashtirish	175
Alibekova R.X. Rus tili darslarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishining shakllanishini takomillashtirish	177
Egamnazarova Z., Ne'matova N.M. Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili o'qitishning metodikasi va texnologiyasi	180
Mamedova N.Z. Nofilologik oliy o'quv yurtlarida rus tilini mutaxassislik sohalari bo'yicha o'qitishning muamolari	182
Rizaeva K. Modern technology in the teaching foreign language	185
Nasretdinova F.N. Innovative technologies of professional training	187
Djumaniyazova E.Q. The effectiveness of innovative educational technologies in the study of foreign languages	190
Umarova F.N. Features of the formation and development of communicative competence in the study of a foreign language among students of a technical university	193
Berdiyeva M.X., Mavlonova M.U. Developing student's creative activity based on an integrative approach	195
Алленова И.В., Ташева У.Т., Цигулева М.В., Данилина Ю.С. Возможности применения технологии веб-квеста в преподавании русского языка	198
Базарова Н.Ш. Методы применения инновационных образовательных технологий на уроках русского языка	200

ortga qaytadilar. Sarobiy shahar haqidagi hikoyalar xangzu sulolasi solnomalaridan o'rin oladi va bizgacha yetib keladi.

Xulosa. Demak, bu misolda askarlarning shahar qidirishi, sirli shahardan hech bir qiyofa qolmaganligi, ma'lum bir makonning ko'zdan g'oyib bo'lishi uning sarobiy makon degan nomni olishiga sabab bo'ldi. Xangzu qabilasi lashkarlari uzoq qidirishdi, sahroning boshidan to oxirigacha kezishdi ammo bu sirli hudud afsonaviy hikoyatlar singari g'oyib bo'ldi. Ayni holatda tarixiy inversiyaning duo hamda ibodat ko'rinishida ma'lum bir g'ayrioddiy shaxslar tomonidan namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu voqeadan so'ng ushbu sirli bir hudud topilmas mamlakatlardan biriga aylanib, barchani o'ziga rom qilib, necha yuz yillar davomida qidiruvga sabab bo'ladi. Xuddi shunday olim va izlanuvchilardan biri bu xorijlik sayyoh bo'lib, u o'zining besh yillik mehnatining aynan shu sarobiy shaharni qidirish bilan o'tkazdi. Ammo bu urinishlari besamar o'tganidan so'ng asardagi obraz ko'ktangriga yalinib, bir marotaba bo'lsada shu g'ayrioddiy shaharni ko'rishga muyassar bo'lay deb iltijo qiladi va bu urinishlari ro'yobga chiqadi. Ya'ni sayyohning tushi orqali amalga oshirilgan tilagi tarixiy inversiyaning yana bir namoyon bo'lish shakli bo'lib, yozuvchi butun shaharni to'la detallari orqali tushda namoyon qildi va xronotopdagi makon ya'ni joy Shahri Haybarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, butun voqealar xayoliy ya'ni tushda ko'rilgani ayni janr namunasi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Вопросы литературы и эстетики / М.М. Бахтин. – М.: Худож. лит., 1975. – С. 234–407.
2. Башляр Г. Избранное: Поэтика пространства; [пер. с франц. Б.М. Скуратова] / Гастон Башляр. – М. РОССПЭН, 2004. – 376 с.
3. Время и пространство [Электронный ресурс] // Институт исследований природы времени. – Режим доступа. – http://www.chronos.msu.ru/TERMS/ryzhukhina_vremya.htm.
4. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. «Sharq yulduzi» jurnali 2010-yil, 6-son.

UO'K 811.111:811.161.1

BOSH SO'ZI SOMATIZMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'LLANISHI

F.O. Narzullayeva, o'qituvchi, Buxoro Davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Ushbu maqolada head/bosh so'zi somatizmlarining semantikasi va funksiyalari, hamda ularning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: somatizm, frazeologizm, semantika, lisoniy tushuncha, ko'chma ma'no

Abstract. This article discusses the semantics and functions of somatisms head/bosh as well as their use in English and Uzbek.

Key words: somatism, phraseology, semantics, linguistic concept, portable meaning.

Аннотация. В данной статье рассматриваются семантика и функции соматизма «head/голова», а также их употребление в английском и узбекском языках.

Ключевые слова: соматизм, фразеологизм, семантика, лингвистический концепт, портативное значение.

Somatizmlar semantikasi va funksiyasi lingvistlar tomonidan juda chuqur o'rganilmoqda. Real voqelik va uning til vositalari bilan somatizmlar orqali aks etishi orasidagi uzviylik tasodif emas, chunki so'zlar orqali berilgan semantik ma'lumotlar bizni qurshab turgan real dunyodagi ob'yektlarni aniqlashda zarurdir.

Lingvistika sohasiga somatizm terminini F.O.Vakk kiritgan, u o'zining izlanishlari natijasida shunday xulosaga kelganki, ya'ni somatizmlar frazeologizmlarning qadimiy bosqichlaridan biri va tilda qo'llaniladigan frazeologizmlarning salmoqli qismini tashkil etadi.

Tadqiqotchilarning somatizmlar guruhini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari insonning o'z-o'zini shaxs sifatida anglashi natijasida yuzaga kelganligidir. T.A.Berdnikovning yozishicha, ong ostini shakllantiruvchi vositalarga ega bo'lish va ular orqali amallarni bajara olish qobiliyatini o'zlashtirgan holda, insoniyat avvalo so'zlar va ifoda vositalariga o'zlariga yaqin bo'lgan tushunchalarni qo'llagan. Ob'yekt sifatida o'rganish va tadqiq qilish uchun eng qulay bu – inson tana a'zolaridir. A'zolar bilan solishtirganda maksimal darajada yaqin bo'lgan, tanish narsa haqida gapiradi, chunki aynan tana

a'zolari nsonga eng yaqin. Ko'chma ma'noda ham, qiyoslashda, metaforalarda, frazeologizmlar va maqollarda har qanday odam o'z fikrlarni yetkazishga harakat qiladi. Bundan tashqari, dunyoni qabul qilishga qaratilgan, hayot va tuyg'ularni anglashga, insonning xarakteri, jismoniy va aqliy faoliyatini anglatuvchi somatizmlar faol qo'llaniladi.

Somatizmlar til birligi bo'lmay turib ham, masalan imo-ishoralar ma'lum bir semantikani namoyon qiladi. Bunday so'zlar, birliklarning lingvistlar tomonidan keng ko'lamda o'rganilishiga sabab, barcha tillardagi so'z birikmalari komponentlarning katta qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, ular til vakillarining ko'p asrlik tarixiy o'ziga xosliklari va madaniyatini ko'rsatadi. Somatik birliklar mahsuldor hisoblanib, ular juda keng ko'lamlidir. Olimlar va tadqiqotchilarning fikricha, har bir tilda dunyoning lisoniy tushunchasi mukammaldir.

O'zbek tilida ham ingliz tilida ham somatizmlar qo'llanilishi keng ko'lamli hisoblanadi. "bosh/head" somatizmi insonning aqliy faoliyatini turli bosqich va darajada ko'rsatuvchi ramzdir. Somatik frazeologizmlarning katta hajmini aynan shu komponent tashkil qiladi. Bunday somatizmlar barcha tillarda uchraydi.

- Aql, fikrlash mazmunini beruvchi somatik frazeologizmlar: a clear head; to have a good head on one's shoulders; a wooden head;

- Kishining jismoniy yoki psixologik holatini ifodalovchi somatik frazeologizmlar: to hang/lose one's head;

- Tushunchaga singib qolgan ustunlik ma'nosini anglatuvchi somatik frazeologizmlar: to carry one's head high; to wash one's head;

- Fikrlash, xotira bilan bog'liq bo'lgan somatik frazeologizmlar: to beat/cudgel/rack one's brains over something.

Somatik frazeologizmlar inson tana a'zolarining ramzi sanalib, ular keng tarqalgan an'analardan nishon beradi. Chog'ishtirilayotgan tilda muqobil variantlariga ega bo'lmagan, tillararo taqqoslashda ko'p tomonlama madaniy tafovutlarni yuzaga keltiradigan bir qator madaniy o'ziga xosliklarga ega somatik frazeologizmlar bor. O'zbek tilida ham inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan, xalqning urf-odatlar va an'analarni ifodalaydigan ko'plab frazeologik birliklar mavjud: *bosh-ko'zingdan sadaqa; boshini ikkita qilmoq; bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi.*

Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik iboralarning kelib chiqishi hayotning turli sohalariga borib taqaladi, shuning bilan birga, ular xalqlarning turmush sharoiti, o'tgan asrlardagi urf-odatlar va g'oyalar bilan bog'liq. Bizga juda yaxshi ma'lumki, har bir xalq o'z obrazi hamda obrazli iboralarni o'ziga tanish bo'lgan hodisalar va hayot jabhalaridan, jumladan, tabiat elementlaridan, flora va fauna olamidani, iqtisodiy hayotning qadimiy shakllaridan, dehqonchilik, ovchilik, baliqchilik, kemasozlik, savdo-sotiq va ayriboshlash hamda eng asosiysi, insonlarning kundalik hayotdagi faoliyatlaridan oladi.

Shaxsga nisbatan simmetrik modellarni ajratish mumkin, masalan ingliz tilida *good head*, o'zbek tilida esa *kallali* leksemalari aqli, es-hushi joyida kabi talqin qilinadi. *Bosh* somatizmi *aql*, *idrok*, *fikrlash qobiliyati* kabi ma'nolarni anglatadi. O'z navbatida o'zbek tilidagi *boshsiz* va ingliz tilidagi *headless* leksemalari *beaql*, *ahmoq*; ma'nolarida qo'llaniladi va insonga nisbatan ishlatiladi.

Bosh somatizm sifatda intellektual qobiliyatni ham anglatadi. O'zbek tilda *boshi toshdan* deganda *umrning uzoq bo'lishi*, *zavol ko'rmaslik* ma'nosi anglashilsa, ingliz tilidagi *hardhead* insonning biror narsani yaxshi qabul qila olmasligi, intellektual qobiliyatining yetarli emasligini anglatadi. Bundan tashqari ingliz tilida "boshning yumshoqligi yoki yetarlicha qattiq emasligi" intellektual jihatdan to'liq shakllanmagan shaxsni bildiradi, masalan *soft in the head*. Boshning tashqi ko'rinishi ham, masalan uning shakli, hajmi ham inson intellektini ko'rsatadi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: ingliz tilidagi *cabbage head* o'zbek tilidagi *qovoqkalla* „ahmoq“ ma'nosini, *head-the-ball* tentak, aqldan ozgan, *flat-headed* pachoq bosh ma'nosini anglatadi.

Bosh nafaqat fikrlash vositasi sifatida, balki o'z navbatida aql manbai hamdir. Simmetrik motivatsion modellarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin, masalan „to'la kalla – aqli odam“, „bo'm-bo'sh kalla“ yoki „bebosh“ – beaql odam, nodon“. Ingliz tilida buni *headful* va *empty-headed* misollari orqali ko'rishimiz mumkin. Bosh hajmi ham o'z navbatida ifoda tariga ega, masalan o'zbek

tilida *katta boshini kichik qilmoq*, shuningdek, bosh qismining hatti-harakati ham: *bosh egmoq*, *bosh suqmoq*, *bosh ko'tarmoq*, *bosh tortmoq*.

Boshga tegishlilik, yoki unda biror narsaning borligi ham insonning intellektual qobiliyatini ifoda etishi mumkin: a rush to the head – «aqlidan ozgan», muddle-headed – «fikri tarqoq», addle-headed – «bemushohada», a pumpkin-headed oaf – «ahmoq, tentak», have rocks in head – «ahmoq, beaql», shthead – «tentak», pudding head – «ahmoq», bananahead – «tentak, tushunib bo'lmas odam», shu bilan birga clear head – «o'tkir aql», «boshi o'tkir», bright headed – «aqli», «qobiliyatli» kabi aqliy qobiliyatni bildiradi.

Intellektual qobiliyatlar aniq fikrlashga va mavjud vaziyatni adekvat baholashga to'sqinlik qiladigan yoki halal beradigan holatlar inson organizmining alohida holatlari orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Spirtli ichimliklar iste'moli, narkotik vositalar ta'sirida sarhushlik holatlari ham bunga misol bo'lishi mumkin. Ingliz tilida alkogol yoki giyohvandlik ta'sirida sarhushlik holatining aqliy qobiliyatga ta'siri ingliz tilidagi metaforalarda o'z aksini topgan, masalan wine flew to his head – «vino boshiga uribdi» ya'ni ichkilik ta'sirida aqlini yo'qotgan, hophead – «yo'qolgan odam» ya'ni sarhushlik oqibatida o'zini yo'qitib qo'ygan odam. Insonning aqlsizligi va ahmoqligi tushunchalari o'zaro aralashligi ahmoqlikning inson ruhiy holati orqali ham beriladi, masalan, weak headed – «tentakroq», «aqli pastroq». O'z navbatida, inson tomonidan sodir etilgan kutilmagan, favqulotda harakatlar ham ahmoqlikni ko'rsatishi mumkin, masalan, go bald-headed – «beo'ylov harakat qilmoq», headlong – «bekalla, beaql».

Vanihyot, bir qator frazeologik birliklarda “bosh” somatizmi kutilmagan tarzda tentak odam olgan shikastning kontekstda ifodalanishini kuzatish mumkin. Buni quyidagi modelda yaqqol ko'rishimiz mumkin, “ravshan bosh – sog'lom fikr”. hammerhead – «ahmoq», «boshiga tosh tekkan».

Intellektual mukammal bo'lmagan inson xarakteristikasini ko'rsatishda bosh chanog'ining butunligi va boshda fikrlash organlarining yo'qligini ko'rsatuvchi leksemalar qo'llanadi: bone head – «ahmoq». Diqqatni jamlash qobiliyati ifodalangan frazeologik birliklar ham mavjud to lose one's head – «xafa bo'lmoq», «tushkunlikka tushmoq», to keep one's head – «o'zini yo'qotib qo'ymoq», to bury one's head in the sand – «o'zini chetga tortmoq, ya'ni biror muammoni hal qilishda qaror qabul qilishdan qochmoq». “bosh” somatizmi odatda hayot ramzini ifodalaydi, chunki u hayotiy muhim organ sanaladi, masalan, to pay for smth. with one's life – «boshini tikmoq». Qo'shimcha mazmun ustunlik ma'nosi ham tushunchaga singib qolgan, masalan, to carry one's head high – «boshini baland tutmoq», «bosh ko'tarib yurmoq», to wash one's head – «boshini egmoq»; «kimnidir haqorat qilib kamsitmoq». Shuni ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida aynan bosh, ba'zida aql, miya so'zi bilan mos keluvchilar analoglarni uchratamiz, masalan, to cudgel one's brains over something – «biror narsa ustida bosh qotirmoq», use your brains – «kallangni ishlat», «miyangni ishlat».

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Firuza, N. (2021). Polysemy and its types in the non-related languages. Middle European Scientific Bulletin, 12, 529-533. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/597>
2. Firuza Narzullayeva, [17.11.2021 11:36] Main characteristics of somatic lexical groups in English/Bukhara State University, Bukhara, Republic of Uzbekistan
3. G'ayratovna, R. . M. . (2021). Semantics of euphemistic and dysphemetic units. Middle European Scientific Bulletin, 12, 243-246.
4. To'rayeva Fazilat Sharafiddinov. (2022). Analysis Of Modal Words and Particles in German and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 151–154. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejhss/article/view/331>
5. Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities in hafiza kochkarova's translations. Middle European Scientific Bulletin, 12, 247-249.
6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna (2021). The category of politeness in different linguocultural traditions. ACADEMICIA: an international multidisciplinary research journal 11 (2), 1667-1675
7. Sobirovich, S. R. (2021). Ethymological Doublets Between French Verbs And Their Use. Middle European Scientific Bulletin, 13. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.13.621>